

Surxondaryo suv loyihasi

Mamlakat: O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami: 50979
Faoliyat sohasi: Infrastruktura, Yevrosiyo
Bildirishnoma turi: DAVLAT
Ekologik toifasi: B
Tasdiqlash sanasi: 2020-yil 18-Noyabr
Qaysi bosqichdaligi: Imzolangan

Loyihaning qisqacha mazmuni ingliz tilida chop etilgan sana: 2019-yil 14-avgust

Loyiha mazmuni

Surxondaryo viloyatining suv infratuzilmasini qayta ta’irlashni moliyalashtirish uchun “Surxondaryo Suv Ta’minoti” MChJ (ilgari “Surxondaryo Suvoqova” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda “*Kompaniya*” deb yuritiladi) foydasiga O‘zbekiston Respublikasiga 50 million AQSH dollari (45 million evro) gacha suveren kredit taqdim etish (keyingi o‘rinlarda “*Loyiha*” deb yuritiladi).

Loyiha maqsadi

Loyihadan suv sifatini yaxshilash va suv infratuzilmasining samaradorligini oshirish kutilmoqda.

O‘tish davri ta’siri

“Yahshi”

- Birlamchi sifat – yashil. Loyiha iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirishi va qishloq joylardagi suv ta’minotini tiklash, markazlashtirilgan suv tarmog‘iga ulangan iste’molchilar sonini ko‘paytirish va suv yo‘qotishlarini kamaytirish orqali suvdan barqaror va samarali foydalanishni ta’minlashi kutilmoqda.

- Ikkilamchi sifati – barqaror. Loyihaning asosiy maqsadi ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari qoplanishi va infratuzilma aktivlari barqarorligini ta’minlash uchun moliyaviy va amaliy takomillashtirishga qaratilgan.

Mijoz haqida

O‘ZBEKISTON SUVEREN

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘

50 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

60 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik-ijtimoiy xulosa

B toifaga kiritilgan (YTTBning ESP 2014 tartibi). Taklif qilinayotgan Ustuvor Investitsiya Dasturining (PIP¹) ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD²) bosqichi texnik-iqtisodiy asoslash doirasida mustaqil xalqaro maslahatchi tomonidan amalga oshirildi. U joriy ekologik va ijtimoiy amaliyot sharhini, Loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy sohaga mumkin bo'lgan ta'sirini baholash hamda Kompaniyaning ekologik va ijtimoiy tartiblari va boshqaruv salohiyatini sharhlashni o'z ichiga oladi.

PIP va Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP³) mahalliy aholining aksariyat qismiga (jami 230 ming kishi, shu jumladan, 80 000 ta yangi iste'molchini) ishonchli toza ichimlik suvdan foydalanish imkonini berish barobarida ichimlik suvining milliy va Yevropa standartlariga erishishni ta'minlaydi. Shunga qaramay, butun aholiga milliy va Yevropa Ittifoqi talablariga muvofiqlikni ta'minlash uchun suv ta'minoti tizimi ko'lamini yanada kengaytirish va takomillashtirish uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi. Suv ta'minoti tizimidagi mazkur katta ko'lamdagi kengaytirish va takomillashtirish ishlari uzoq muddatli investitsiya dasturiga kiritilishi zarur. Hozirgi vaqtda Kompaniyaning o'z daromadlari hisobidan uzoq muddatli investitsiya dasturini moliyalashtirishni tasdiqlashning imkoni yo'q va tashqi moliyalashtirish manbalari ham aniqlanmagan. Shu sababli, foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqqan cheklovlar hamda cheklangan moliyaviy imkoniyatlar tufayli, YTTBning atrof-muhit va ijtimoiy siyosatidan (2014) chekinish talab etiladi.

Surxondaryo viloyatida suv taqsimlash infratuzilmasining suv o'tkazish salohiyati va texnik holatining yomonlashuvi joriy suv ta'minoti bilan bog'liq muammolar sirasiga kiradi. Suv tarmog'i ahvolining yomonligi, suvni dezinfeksiya qilish samaradorligi pastligi va suvni tozalashning sifati pastligi (sulfatlar, loyqa va koli bakteriyalar parametrlarining chegaradan yuqori ekanligi) sababli ichimlik suvining sifati quyi darajadadir. Suv sifatini monitoring qilish esa yetarli ham, muntazam ham emas. Kompaniyaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimlari talablarga javob bermaydi va takomillashtirishni talab etadi. Umuman olganda, ESDD bosqichida bir qator nomuvofiqliklar aniqlandi va ular asosan Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasiga kiritilgan tuzatish choralari orqali hal qilinadi.

PIP doirasidagi aholi uchun suvni kerakli darajada tozalash darajasini ta'minlash borasida Kompaniya suvni tegishli me'yorlarga muvofiq izchil tarzda xlorlashi kerak, bunda mavjud manbadagi suvni (suv sifati parametrlari qoniqarli bo'lgan joylardagi) yangi yer osti suv manbalaridagi suvga aralashtirish yo'li bilan uning tarkibidagi loyqalanish va sulfatlar darajasini milliy va Yevropa ichimlik suvi standartlariga muvofiqlashtirishga erishish mumkin. Suv sifatini tekshirish uchun kengaytirilgan monitoring ham joriy etiladi.

Loyihaning salbiy ta'siri asosan uning qisqa muddatli ekanligi va uning qurilish bosqichiga bog'liq. Suv ta'minoti va tarqatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish bilan bog'liq investitsiyalardan tashqari, ta'sirning ko'p qismi qurilish maydonchalarining o'zida hal qilinadi. Uskunalaridan chiqadigan turli shovqinlar, mahalliy qisqa muddatli transport tirbandliklari va havo ifloslanish darajasining o'sishi, yerni qazish ishlari paytida tuproq va landshaftning buzilishi va ehtimoliy vaqtincha iqtisodiy ko'chirish ishlari ushbu ta'sirlar jumlasiga kiradi. Ishlarning to'g'ri tashkil qilinishi bu ta'sir darajalarini pasaytirishi mumkin.

¹ Priority Investment Programme

² Environmental and Social Due Diligence

³ Environmental and Social Action Plan

ESDD bosqichida PIPning umumiy amalga oshirilishi aholiga yanada sifatli xizmatlarni taqdim etish orqali uzoq muddatli ijobiy ijtimoiy natijalarga olib keladi degan xulosaga kelindi. Bularga suv ta'minoti xizmatlarini yaxshilash, suv ta'minoti tizimiga yangi ulanish imkoniyatlarini yaratish, ichimlik suvi sifatini milliy va Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiq ko'tarish, sanitariya-epidemiologiya xavflarini kamaytirish, suv yo'qotilish darajasini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek xodimlarning mehnat xavfsizligi va mehnat sharoitlarini oshirish kabi omillarni kiritish mumkin.

Agar barcha qo'shimcha chora-tadbirlar (xlorlash, suv ta'minotining risoladagidek ishlash tartibi, suv sifatini to'g'ri nazorat qilish va tezkor amalga oshiriluvchi choralar) ESAPga muvofiq to'liq amalga oshirilsa, suvning sifati nafaqat mahalliy qonunchilik talablari, balki Yevropa Ittifoqi talablariga ham javob beradi. ESAP shuningdek, Kompaniyadan YTTB loyihalari uchun talablarga muvofiq ishlab chiqilgan qator takomillashtirishlar, xususan, Kompaniyaning atrof muhit, salomatlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (EHS⁴) imkoniyatlarini oshirish, EHS asosiy xavflari bilan bog'liq EHS tartiblarini ishlab chiqish, kadrlar siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, xodimlarning shikoyat qilish mexanizmlarini joriy qilish, pudratchilar uchun EHS hamda mehnatni boshqarish va monitoring qilish dasturini ishlab chiqish, shuningdek, shikoyat qilish mexanizmi bilan bir qatorda Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro harakat rejasini (SEP⁵) amalga oshirilishini ham talab qiladi ESAP ekologik va ijtimoiy sohadagi har qanday ta'sir va kamchiliklarni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u direktorlar kengashi yig'ilishidan oldin Kompaniya bilan kelishib olinadi.

YTTB Loyiha hamda ESAPning amalga oshirilishi, shu bilan birga, Kompaniyaning ekologik va ijtimoiy samaradorligini monitoring qiladi; bunda u Kompaniyaning yillik atrof muhitga oid va ijtimoiy hisobotlarini ko'rib chiqadi va zarurat tug'ilganda, nazorat tashriflarni amalga oshiradi. Loyiha uchun Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro harakat rejasi va Umumiy mazmundagi xulosa (NTS⁶) ham ishlab chiqilgan.

Texnik ko'mak

Imzolashdan oldin:

TC 1: Texnik, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ekspertiza. Bu loyiha topshirig'i bahosi 187 400 yevroni tashkil qiladi va u infratuzilmaga oid loyihalarni tayyorlash jamg'armasi orqali YTTB Aksiyadorlarining maxsus fondi (SSF⁷) tomonidan moliyalashtirildi.

Imzolashdan keyin:

TC 2: Kompaniyaning institutsional, amaliy va moliyaviy salohiyatini oshirish uchun uning xo'jalik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish. Bu loyiha topshirig'i 200 000 yevroga baholangan bo'lib, u Ilk o'tish davridagi mamlakatlar jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

⁴ Environmental, health & safety

⁵ Stakeholder Engagement Plan

⁶ Non-technical summary

⁷ Shareholders Special Fund

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Loyihani amalga oshirish bo'limi

po.ebrd@uzsuv.uz

+99855-503-12-55

+99855-503-12-55

<http://uzsuv.uz>

Niyozbek Yuli ko'chasi, 1-uy, Toshkent shahri, 100035, O'zbekiston Respublikasi

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalga qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika choratadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; -

Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralari ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.